

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14501936>

## AMUDARYO BOTIQLIGINING SHIMOLIY-SHARQIY QISMINING TEKTONIK RIVOJLANISH TARIXI

**Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Qarshi shahar, O‘zbekiston

E-mail: [axmedov-x-68@mail.ru](mailto:axmedov-x-68@mail.ru)

*Annotatsiya.* Maqolada Amudaryo botiqligining shimoliy sharqiysmi asosan Buxoro-Xiva neftgazli regioning tektonik elementlari yoritilgan. Buxoro-Xiva neftgazli oblastining asosiy tuzilmali elementlari bo‘lgan Buxoro va Chorji pog‘onalarining o‘lchami, ularning tarkibidagi tektonik elementlar va ularning neftgazlilik bayon qidingan.

Shuningdek maqolada Gugurtli-Uchqir ko‘tarilmasi va Qulbeshkak tuzilmalarida o‘tkazilgan tadqiqot ishlari keltirilgan.

**Tayanch iboralar.** Amudaryo botiqligi, Pitnyak tuzilma, Buxoro pog‘onasi, mezozoy yotqiziqlari, Chorji pog‘onasi, Qorail-Lyangar, Uchbosh-Qarshi, fleksura.

## HISTORY OF TECTONIC DEVELOPMENT OF THE NORTH- EASTERN PART OF THE AMUDARYA BASIN

**Axmedov Xolxo‘ja Rahmatullayevich**

E-mail: [axmedov-x-68@mail.ru](mailto:axmedov-x-68@mail.ru)

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

*Abstract.* The article covers the tectonic elements of the Bukhara-Khiva oil and gas region in the northeastern part of the Amudarya basin. The size of the Bukhara and Chorji ridges, which are the main structural elements of the Bukhara-Khiva oil and gas region, their tectonic elements, and their oil and gas content have been described.

The article also presents the research work carried out in Gugurtli-Uchqir rise and Kulbeshkak formations.

**Basic phrases.** Amudarya depression, Pitnyak structure, Bukhara step, Mesozoic deposits, Chorji step, Karail-Lyangar, Uchbosh-Karshi, flexure.

**KIRISH.** Amudaryo botiqligining shimoliy-sharqiy qismi paleozoy fundamentining pog‘ansimon cho‘kkan zonasidan, shuningdek mezozoy yotqiziqlaridan iborat bo‘lib, fundamentdan shimolda Qizilqum paleozoy massivi, Janubiy yo‘nalishda regional uzilmalar seriyasi bilan murakkablashgan.

Amudaryo botiqligining ko‘riladigan qismida shimoliy-sharqdan janubiy – g‘arb tomon Qarshi-uchbosh va Amudaryo feluksura-uzilmalari bilan bo‘lingan Buxoro, Chordjou va Bagadjin pog‘onalari ajraladi. Bu tektonik pog‘onalarga Burg‘ulash va geofizik tadqiqotlar ma‘lumotlari bo‘yicha paleozoy fundamentining yirik do‘ngliklari ajratilgan va bu do‘ngliklarni egekliklar bo‘lib turadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxoro-Xiva neftgazli oblasti boshqa neftgazli regionlar bilan solishtirganda eng keng region bo‘lib, yirik Amudaryo botiqligining shimoliy-sharqiy qanoti hisoblanadi va to‘g‘ri burchakli uchburchak shakliga ega, yuqori qismi Pitnyak tuzilma guruhiga to‘g‘ri keladi. Uning hududiga yirik gaz va gazokondensat konlari aniqlangan.

Buxoro va Chorji tektonik pog‘onalari Buxoro-Xiva neftgazli oblastining asosiy tuzilmali elementlariga hisoblanadi, o‘z novbatida bu tektonik elementlar turli vallar, ko‘tarilmalar va egekliklar bilan murakkablashgan.

Chorji pog‘onasi shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishga cho‘zilgan uchburchak shakliga ega bo‘lib, uchta fleksura-uzilmali zonalar bilan chegaralangan: bular Uchbosh-Qarshi, Amudaryo va Qorail-Lyangar uzilmali zonalar. Uchbosh-Qarshi va Amudaryo fleksura-uzilmali zonalarini birlashtirsa uzunligi 500km, uni janubiy-sharqiy qismga 110 km o‘lchamdagi berk pog‘ona hosil qiladi. Asosi 2,5-6,5 km chuqurlikda yotadi. Barcha mezozoy yotqiziqlarining qalinligi Buxoro pog‘onasi bilan solishtirilganda yura yotqiziqlari 2000 metrga oshadi, qirqimida kimeridj-titon evaporit qavatini mavjud, bo‘r yotqiziqlari 1900 metrgacha oshadi. Kaynazoy hosilalari kesimi Buxoro pog‘onasidan farq qilmaydi.

Chorji pog‘onasining shimoliy-g‘arbiy qismida Gugurtli-Uchqir ko‘tarilmasi joylashgan bo‘lib, janubdan shimolga 200 km oraliqda cho‘zilgan, uni 15 km. Bu ko‘tarilma turli tomonlarga 2 ta zvenodan tashkil topgan uzilma bo‘yi tuzilmadan iborat va Amudaryo fleksurna-uzilmali zona holati bilan aniqlanadi va uzilma kengligi tomon o‘sadi. Uzilma oldi burmalar katta amplitudaga ega bo‘lgan uzilmalar bilan murakkablashgan. Val konturida paleozoy fundamentining yotish chuqurligi 2079 metrdan (uchqir №21 qud.) 2890 metrgacha (Syuyizma №2 qud) o‘zgaradi.

Gugurtli-Uchqir ko'tarilmasi sharqiy qismi janubiy-sharqiy yo'nalishga cho'zilgan, g'arb-shimoliy-g'arbda quyidagi 5 ta lokal braxiantiklinal tuzilmalardan iborat zanjirni o'z ichiga oladi (g'arbdan sharqa): Gugurtli, Jayxun, Doyaxotin, Kurgan, Qulbeshkak va Uchqir bu tuzilmalar bir-biridan sedlovinalar bilan bo'lingan.

Qulbeshkak tuzilmasi XV-1 gorizonti krovli si bo'yicha uch gumbazli tuzilshga ega (markaziy, g'arbiy va sharqiy gumbaz)

G'arbiy gumbazda №№ 5;13 quduqlar joylashgan XV-1 gorizonti hisoblash rejasi tuzilgan va gaz zaxirasi  $S_1$  toifa bo'yicha hisoblangan.

Markaziy gumbazda №№ 1,2,3,4,7,9,15, 22, 23, 24, 25 quduqlar joylashgan XV-1 gorizonti hisoblash rejasi tuzilgan va gaz zaxirasi **B** toifa bo'yicha hisoblangan.

Sharqiy gumbazda №№ 6,8,11,16,17,34 quduqlar va Uchqir №21 quduq joylashgan bo'lib, XV-1 gorizonti hisoblash rejasi tuzilgan va gaz zaxirasi  $C_2$  toifa bo'yicha hisoblangan. Bu gumbazda 74100109 pk 125 va 37070606 pk 215 sesmoprofilar kesishgan joyda №6 quduqdan janubroqda bitta parametrik quduq burg'ulanish rejalashtirilgan.

Amudaryo sineklizasini neftgazliligini va tektonik tuzilishini Babaev A.G., Davlatov Sh.D., Ibragimov A.G., Ilin V.D., Mirkamilov X.X., Abdullaev G.S., Axmedov P.U., Krilov N.A., Nugmanov A.X., Sitdikov B.B. va boshqalar har xil yillarda o'rganib chiqishgan.

Amudaryo sineklizasi Turon plitasini eng yirik tektonik elementi hisoblanib, uning chekka yon tomonlarida navbat bilan pasayish kuzatiladi. Sineklizaning markaziy qismi cho'kindi qoplamada ham kuzatiladigan poydevorda uzilishlar bilan chegaralangan bir qator botiqlik va vallar bilan tavsiflanadi. Amudaryo sineklizasining chekka qismlarida Buxoro, Chorji, Bagadjin pog'onasi, Badxqz-Karabil ko'tarilma zonasi va Beshkent egikligi ajratiladi.

Chorji pog'onasi Buxoro pog'onasidan janub tomonda joylashgan bo'lib, shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 500 km, eniga 400 km dan 125 km gacha cho'ziladi. Janubiy-g'arbda va shimoliy-sharqda pog'ona Amudaryo daryosi ёнидан va Buxoro pog'onasini janubiy egilmasidan o'tuvchi hududiy yer yorig'i bilan chegaralangan.

Rayonning platforma qoplamasini tuzilishida yura-kaynozoy yotqiziqclarini majmuasi ishtirok etib, bunda titon tuzli qatlami bilan bir-biridan 2 qavat ajratiladi.

Tuz usti majmualar yuza qismini tuzilishi haqida to'liqroq ma'lumotlar paleogen buxoro qatlamlarining yuqori qismi bo'yicha olingan. Berilgan yuza Ko'kdumaloq maydoni va qo'shni maydonlarda barcha chuqur quduqlar bilan burg'ilangan, hamda mahalliy antiklinal burmalarni izlash maqsadida turli yillarda yoritilayotgan maydonda tuzilmali quduqlar bilan o'rganilgan. Maydalanish zonasi bilan tavsiflanadigan aylanma tuzilmaga joylashgan va "серных bugrov" nomi bilan ataladi. Zonasi ustida

bazalt sloyi va Moxo yuzasi yotqiziqlarining ko'tarilgan joyiga aniqlangan baykal massivlari cho'zilib yotadi.

Tuzusti va tuzosti tuzilmaliy rejasini taqoslaganda tuzosti yotqiziqlarini tuzilmali yuzasi va ko'p holda ohaktoshlarning mahsuldor qati munosib tarzda o'zgarishi va murakkablanishi ko'rinadi. Oksford-kimeridj rifogen kompleksi yuzasiga tegishli karbonat formatsiyasi krovli bo'yicha shimoldan Dengizko'l ko'tarilmasini botig'i hisoblangan tuzusti yotqiziqlari bo'yicha monoklinal yotgan sloyli uchastkada Markov lokal burmahanligi qarama-qarshi joylashgan. Djarchin, Umid, Shimoliy O'rtabuloq maydonlari o'zining kelib chiqishi bo'yicha oksford-kimeridj yakka rif massivlarining jadal o'sishi bilan bog'liq, keyingi kompensatsiyasida tuzli qatning rif relfi hosil bo'lgan. G'arbda O'rtabuloq va sharqda Zevarda rif tutqichlari birgalikda janubda yarim aylana hosil qilib, markazda Sardob maydoni joylashgan rifsiz turdagi karbonat yotqiziqlari bu rayonda yeng zona bo'ylab keskin chegaralangan.

Tektonik munosabat bo'yicha rifsiz zona yassi botiqlik va atrofdagi rif massivlari bilan solishtirganda tinch tuzilmaliy shakilga ega buday holat faqat Sardob burmahanligida ajratiladi.

Tuzilmali xaritaga muvofiq Sardob burmahanligi tor tuzilmali ko'rinishda bo'lib, O'rtabuloq va Markov tuzilmalarini birlashtiradi va karbonat farmatsiyasi krovli bo'yicha fleksura-yoriqliy zonani murakkablashtirgan qanotlari assimetrik tuzilishdagi shimoliy-sharqiy qisimi antiklinal ko'rinishga ega. Tuzilmalarning shimoliy- g'arbiy qanoti aylana (yotish burchagi  $20^0$ ), janubiy-sharqiy qanoti yarimdoira yotish burchagi  $5-6^0$  dan oshmaydi.

**XULOSA.** Buxoro va Chordjou tektonik pog'analari Buxoro-Xiva neftgazli oblastining asosiy tuzilmali elementlariga hisoblanadi, o'z novbatida bu tektonik elementla turli vallar, ko'tarilmalar va egekliklar bilan murakkablashgan.

Buxoro-Xiva neftgazli oblasti O'zbekiston respublikasida neft va gaz zaxirasi qazib chiqariladigan asosiy manba hisoblanadi.

Toyura kompleksi yangi obyekt hisoblanadi, Yangi obyektlarda geologo qidaruv mishlarini olib borish katta geologik tavakalchilik bilan bog'liq. Shuning uchuntavakalchilikni minimal darajada tushirish uchun kengroq prognozlash kerak bo'ladi.

Ko'p yillik tadqiqotlar jarayonida olingan natijalar toyura kompleksi qirqimida yetarli darajada kolektor jinlar qavatlari, qopqoq jinlar, organik moddalarning tarqalishi (agar UV hosil bo'lishining organik gipotezasiga etibor berilsa) va boshqa toyura jinlarining neftgazga samaradorligini yuqori baholaydigan omillar mavjudligidan guvohlik beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абидов А.А. Нефтегазоносность литосферных плит. Т., «Фан», 1984, 125
2. Бабаев А.Г. Геотектоническая история Западного Узбекистана и региональные закономерности размещения скоплений нефти и газа. Л., Недра, 1966г.
3. Буш В.А., Гарецкий Р.Г., Кирюхин Л.Г. Тектоника эпигеосинклинального палеозоя туранской плиты и ее обрамления / М., Наука, 1975
4. Axmedov X.R Buxoro-Xiva regionining markaziy qismda mezozoy-kaynozoy tarixining turli bosqichlarida hosil bo'lgan lokal tuzilmalarning yoshi va makondagi munosabatlarini rutbali paleotektonik tahlili / Sanoatda raqamli texnologiyalar Ilmiy-texnik jurnali, №2(3) / 2024 QarMII "INTELLEKT" MIU nashriyoti. 120-127 b/